O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
SIRDARYO VILOYATI
BOSHQARMASI

Sirdaryo viloyati 120100, Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, Hondamir ko‘chasi, 7-uy, Tel/Faks: 71-203-11-08, E-mail: sirdarya_davekspert@mail.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy
Boshqarma boshlig`i: Bahodirov Saidaxmad Ulug‘bekovich
Sana: 19-03-2024 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

201959 - SONLI

Obyekt nomi: Mavjud ofis bino-inshootlarini buzib, o’rniga 5 qavatli turar-joy binosi qurilishi.	
Buyurtmachi:	YUA CITY-HOUSE MCHJ
Bosh loyihachi:	"NURAFSHON ELEKTR SERVIS" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	“YUA CITY-HOUSE” MCHJ
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	003001

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Andijon shahar qurilish bo‘limining 2023-yil 29-yanvardagi “Obyektni ixtisosini o‘zgartirish va rekonstruksiya qilishga” 1703401-91399-sonli ruxsatnoma.

1.2.Belgilangan tartibda tasdiqlangan va kelishilgan loyiha topshirig‘i.

1.3. Andijon viloyati qurilish bosh boshqarmasining 2023-yil 20-fevraldagi 1703-1703401-61504 – sonli Arxitektura rejalashtirish topshirig‘i.

1.4. Buyurtmachi tashkilot bilan Loyihachi tashkilot o‘rtasida loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqarish uchun 2023-yil 10-maydagi 1 26/01-2023-sonli kelishuv shartnomasi.

1.5. “SIDEL ARCH-BUILDING” MChJning muxandislik-geologik tadqiqotlar natijalari bo‘yicha texnik xulosasi.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

Loyiha tarkibiga ko‘ra “Andijon shahar Mash’al MFY Termiz ko’chasi hududida Mavjud ofis bino inshootlarini buzib, o’rniga 5 qavatli turar-joy binosi qurilishi”obyekti bo‘yicha loyiha-smeta hujjatlarining elektron shakli.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Loyihada “Andijon shahar Mash’al MFY Termiz ko’chasi hududida Mavjud ofis bino inshootlarini buzib, o’rniga 5 qavatli turar-joy binosi qurilishi” ishlarini amalga oshirish nazarda tutilgan.

3.2. Qurilish maydonining harakteristikasi.

- Me’yoriy qor tushish bosimi - So=0,50 KPa (50 kgs/m2) (KMK 2.01.07-96)
- Me’yoriy shamol tezligi bosimi - Wo=0,38<0,45 KPa (38<45 kgs/m2) (KMK 2.01.07-96)
- Tuproqning mavsumiy muzlash sathi - 0.68m.
- Tuman seysmik ko‘rsatkichi - 9 ball.
- Hududdagi tuproqning chukuvchanlik hususiyati – I (birinchi)

3.3. Loyiha yechimining qisqacha tasnifi.

Turar-joy binosi.

Besh qavatli “ko‘p qavatli turar-joy” binosi to‘g‘ri burchakli shaklga ega bo‘lib, yerto‘la qavati bilan loyihalangan. Turar-joy binosi o‘q chiziqlari bo‘yicha o‘lchamlari 14,30 m. x 10,8 m. gacha. Binolarining balandligi: poldan shiftgacha h=3,0 metr KMK 2.0.03-96 “Seysmik hududlarda qurilish” 3.1-jadval talablariga muvofiq bino seysmik chok yordamida yechim qilingan.

- Binoning konstruktiv yechimi uzunligi va ko‘ndalang ramadan tuzilishidan va antiseysmik kamardan (poyas) iborat.
- Devorlari M75 pishgan g‘ishtdan qilingan, murakkab loyiha yechimi bo‘yicha ishlab chiqilgan.

Bino quyidagi konstruktiv elementlardan tashkil topgan.

- Poydevorlari – Lentasimon monolit temir beton (beton sinfi B15).
- Devorlar – Standart pishgan g‘ishdan M75.
- Orayopma - №1 seriyasi UTR46.1-95 yig‘ma temir beton dumaloq teshikli plitadan.
- Ichki pardozlash ishlari xonalar funksional tarkibiga qarab pardozlanadi.
- Tashqi pardozlash ishlari – Qum sement ohak aralashmali qorishmadan suvoq ishlari bajariladi. Ustidan yelim asosli qorishmali suvoq qilinadi va 2 marotaba fasad dekorativ bo‘yoq bilan bo‘yaladi.
- Pollar - Keramik plitkalar, laminat va marmardan iborat.
- Ichki eshiklar MDF va PVX ko‘p kamerali plastik profildan o‘rnatiladi. Barcha eshik bloklarini ostonasiz o‘rnating.
- Ichki va tashqi oyna – Yangi o‘rnatiladi.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Elektr taminoti:

Elektr ta'minotining ishonchlilik darajasiga ko'ra, binoning tok kollektorlari II toifali iste'molchilarga tegishli. AUO blokli VRU1-23-55UXL4 seriyali kirish tarqatish moslamasi sifatida qabul qilindi. Elektr energiyasini hisobga olish uchun elektron hisoblagichlar taqdim etiladi. Magistral tarmoq VVGng kabeli bilan yerto‘lada va ko'taruvchi qavslarda simi tagliklari yordamida amalga oshiriladi. Guruh yoritish tarmoqlari gofrirovka qilingan quvurlarda VVGng kabeli yordamida amalga oshiriladi. Yoritgichlar turi binolarning maqsadi va atrof-muhitning xususiyatlariga muvofiq tanlanadi. Kalitlar pol sathidan 0,9 m balandlikda o'rnatiladi. Oshxonadagi rozetkalar 1,2 m, konditsioner uchun - pol sathidan 2,4 m. Elektr jihozlarining barcha metall, odatda oqim o'tkazmaydigan qismlari yerga ulangan bo'lishi kerak.

Tashqi elektr tarmoqlari.

Ishchi loyiha: “Uy-joy binosining tashqi elektr ta’minoti, quyidagilar asosida ishlab chiqilgan:

- loyiha topshiriqlari;
- elektr tarmoqlarini loyihalash, qurish va ulardan foydalanish bo'yicha amaldagi me'yoriy hujjatlar;

- texnik shartlar (TU) “HUDUDIY ELEKTR TARMOQLARI” AJ Andijon HUDUDIY FILIALI tomonidan 2023 yil 25 dekabrdagi 30-31-yash /1574-son” Elektr ta'minotining ishonchliligi bo'yicha turar-joy binosi III toifaga kiradi. Loyiha 100 kVA quvvatga ega transformator podstansiyasini o‘rnatishni nazarda tutiladi. AVVG kabeli transformator podstansiyasidan binoga tuproq yuzasidan 0,7 m chuqurlikda tuproqli xandaqda yotqizilgan. Transformator podstansiyasini yerga ulash ta'minlangan. Kabel liniyalarining yer osti tarmoqlari bilan barcha kesishmalari va ulanishlari standartlarga muvofiq amalga oshiriladi. Kesishish nuqtalarida kabel asbest-sement quvurlariga yotqiziladi. Qazish ishlari paytida barcha manfaatdor tashkilotlarning vakillari chaqiriladi.

4.2. Sovuq suv ta’minoti:

Sovuq va issiq suv ta'minoti: Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini hisoblash KMK 2.04.01-98 “Ichki suv ta`minoti va binolarning kanalizatsiyasi” talablariga muvofiq amalga oshirilgan. Hisoblangan sovuq suv sarfi sutkasiga 7,2m3, issiq suv sarfi 4,8 m3, oqava suv sarfi 12 m3.ni tashkil etadi. Sovuq suv bilan xo‘jalik - ichimlik extiyojlari uchun ta`minlanadi. Kirishlar soni bitta, oxiri berk. Sovuq va issiq suv quvurlari tizimlari PPRS Ø 20.....63mm polipropilen quvurlardan ishlab chiqilgan. Bino yerto‘la qismida bosimni kuchaytirish maqsadida Q=2,5m3/soat, H=32m, N=1,5kVt (1-ishchi,1-zaxira) nasoslar hamda chuqurchalarda Gnom 10-10, Q=10m3/soat, H=10m elektr nasos o‘rnatiladi.Loyiha doirasida, bino tomiga 5 dona quyosh suv isitgichlari (HWH-35-300) o‘rnatiladi. Ular suv tarmog‘i orqali sovuq suv bilan ta’minlandi, ulardan chiqayotgan issiq suv har bir xonadondagi ikki konturli isitish qazoni orqali iste’molchiga yetkaziladi. Quyosh issiq suv kollektorlariga kirish va chiqish quvurlari binoning chodirida yig'ilganda kvartiralarga taqsimlanadi. Sovuq suv uchun xar bir xonadonda suv o‘lchagichlar va fil`tr inobatga olingan.

Ichki oqava suv tarmoqlari:

Oqava suv tarmoqlari d-50mm, d-100mm (GOST 32412-2013) bo‘lgan polietilen quvurlardan i=0.025 nishablik bilan yotqizilgan. Loyihada quvurlarni gidravlik sinovdan o‘tkazish va yerto‘la, chodirlar va tomlar orasidagi barcha quvurlarni issiqlik izolyatsiyasi bilan himoyalash ishlari nazarda tutilgan.

Sanitariya-texnik vositalari:

Qo‘l yuvish uskunalari (umival’nik), unitazlar, vanna, osh xonada idish yuvish qozonlari (moyka) joylashtirilgan.

Tashqi ichimlik va oqova suvi tarmog’i:

Tashqi ichimlik va oqava suv tarmoqlari loyihasi “Andijon suv ta`minoti” MCHJ tomonidan 2024-yil 30-yanvardagi 244-sonli Texnik shartga asosan qayta ishlab chiqildi. Suv tarmoqlari Mumtozbegim ko‘chasidan o‘tuvchi markaziy suv quvuridan d=110mm bo‘lgan polietilen quvur bilan ulanadi. Oqova suv tarmoqlari d-150mm bo‘lgan polietilen quvurlar yordamida loyihalashtirilgan, binodan chiqgan chiqinda suvlar U.Yusupov ko‘chasidagi eng yaqin quduqga yo‘naltiriladi. Kuzatuv ishlari uchun yig’ma temirbeton ko‘zda tutilgan.

4.3. Isssiqlik ta’minoti:

5(besh) qavatli turar-joy bino-inshooti bo‘yicha ishlab chiqilgan ishchi loyiha va smeta hujjatlariga ko‘ra, ko‘p qavatli turar-joy ob'ektining yerto‘la (tsokol qavati) qismi, 1- qavatidan to 5-qavatigacha ichki issiqlik tizimining qurilishi, ya'ni, issiqlik ta'minoti manbai sifatida oshxona devoriga o‘rnatiladigan ikki konturli va tabiiy gaz yoqilg‘isida ishlaydigan qozonlar qabul qilingan;

Bundan tashqari bino qavatlari qismining issiqlik ta'minoti bo‘yicha quyidagi, asosiy va boshqa turdagi ishlarni amalga oshirilishi, jumladan, - 850m - d27,3x5,35, d32x5,4 va d40x6,7mm

bo‘lgan polipropilenli isitish tizimi quvurlarini yotqizish;

- quvvatli Qm= 0,30 kVt bo‘lgan - jami – 30 dona alyumin radiatorlar o‘rnatish;

- isitish tizimi tarmoqlari uchun d57x3,0mm bo‘lgan 120m uzunlikdagi elektrpayvandlangan po‘lat quvurlarni yotqizish;

- 246 m bo‘lgan isitish tizimi tarmoqlarining elektrpayvandlangan po‘lat quvurlarini gidravlik sinovdan o‘tkazish ko‘zda tutilgan.

4.4. Ekspertizaga kiritilgan hujjatlar tarkibida ob'ektni mavjud gaz quvuriga ulanish to‘g‘risida “Hududgaz Andijon” gaz ta'minoti filiali tomonidan 2023 yil 28 aprelda berilgan 155 - sonli texnik shartining 4-bandi – gaz jihozlari soni va turi (KGP4-10 dona – deb ko‘rsatilgan), 5-bandi – gaz taqsimlash punkti(GTP)ni qurish zarurligi hamda boshqa tegishli bandlarga, loyihachi tomonidan loyihalash jarayonida e'tibor qaratilishi so‘raladi, shuningdek mazkur ob'ektni gazlashtirish loyiha-smeta hujjatlari “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimiga joylashtirilmaganligi bois, gaz ta'minoti bo‘limi keyingi bosqichda ko‘rib chiqiladi.

4.5. Yong'in signalizatsiyasi:

Loyiha xavfsizlik va yong'in signalizatsiya tarmoqlarini o'rnatishni nazarda tutadi. Abonent tarmog'i (KPSEng(A)-FRLS 1x2x0,75) ochiq simli va PVX kabel kanallarida olib boriladi va dahliz o't o'chirish stantsiyasida o'rnatilgan qabul nazorat va yong'in qoriqlash boshqaruvi qurilmasi paneli Bolid rusumli boshqaruv panellariga chiqariladi. Yong'in va o'g'irlik signalizatsiyasining elektr qabul qiluvchilarini elektr ta'minoti 3 - toifaga kiradi va bitta mustaqil quvvat manbalaridan amalga oshiriladi. Asosiy quvvat 220V, 50Gts o'zgaruvchan tok bilan ta'minlanadi.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Andijon viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasining Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 10.04.2023-yildagi 69066-sonli xulosasi.

5.2. Hududiy elektr tarmoqlari AJ Andijon hududiy filialining 2023-yil 25-dekabrdagi 30-31yash/1574-sonli texnik sharti.

5.3. “Andijon suv ta’minot” MChJning 2024-yil 30-yanvardagi 110198065-(244)-sonli texnik sharti.

5.4. “Hududgaz Andijon” GTFning 2023-yil 28-apreldagi 155-sonli texnik shart

5.5. Ishchi loyihani tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor tashkilotlar bilan kelishish lozim.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra **2 704 651 282** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati **128 479 341** so'mga kamaytirilib, **2 576 171 941** so‘mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **2 140 741 564** so'm

Asbob-uskunalar: **159 411 955** so'm

QQS: **276 018 422** so'm

6.1. Smeta hujjatlari ekspertizaga buyurtmachining e’tirozlarisiz taqdim qilindi.

6.2. Obyektning qurilish narxi "Qurilish iqtisodiyoti instituti" MChJ tomonidan ishlab chiqilayotgan joriy narxdagi kataloglar, birja, amaldagi (haqiqiy, bozor sharoitlariga ko'ra) narxlar va joriy vaqtda faoliyat olib borayotgan internetdagi bozor narxlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan va ekspertizaga taqdim etilgan.

Ishchi quruvchilarning o‘rtacha bir soatlik ish haqi "Qurilish iqtisodiyoti instituti" MChJ chiqarayotgan 2023 yil 4 chorak (kvartal) katalog asosida 17 888,74 x 1,12 = 20 035,39 so'm ijtimoiy sug'urtaga ajratma 12% qabul qilingan. (Ijtimoiy sug'urtaga ajratma foizi

pudratchining haqiqiy harajatlari bo'yicha buxgalteriya hujjatlari asosida amalga oshiriladi).

Tavsiya etilayotgan cheklangan qiymat miqdori buyurtmachi va pudratchi o‘rtasida shartnoma tuzishga asos bo‘la olmaydi.

O‘zbekiston Respublikasining 22.04.2021 yildagi 684-son Qonuni va O‘zbekiston Respublkasi Vazirlar Mahkamasining 31.01.2022 yildagi 46-son qarori va ShNQ 4.01.16-09 me’yorlariga muvofiq obyektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi. Tasdiqlash uchun tavsiya etilgan yangi qurilish ishlari narxi cheklangan qiymat hisoblanib, asosiy qarorni buyurtmachi va bosh pudrat korxonasi tomonidan shartnomaviy munosabatlar orqali amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.07.2022-yildagi yildagi PQ-332-son Qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, obyektning cheklangan qiymati buyurtmachi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi "Loyihalarni va import kontraktlarni kompleks ekspertiza qilish markazi" DUKning ijobiy xulosasini hisobga olgan holda aniqlanadi. Ushbu qaror 2-ilovasining 1-bob, 4-bandiga asosan- "Binolar, inshootlar va muhandislik kommunikatsiyalarini kapital qurish va ta’mirlash bo‘yicha tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridini amalga oshirish uchun xarid qilish hujjatlari Markazga texnik topshiriq shaklida loyiha-smeta hujjatlari bilan birgalikda kiritiladi va ulardagi tovarlar (ishlar, xizmatlar) hajmlari va narx parametrlarining asosliligi yuzasidan ekspertizadan o‘tkaziladi.

6.3. Smeta hujjatlarida ko‘rsatilgan pudratchining boshqa harajatlari miqdori bo‘yicha “Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi qilish Respublika markazi” DM Sirdaryo viloyati hududiy boshqarmasi majburiyatini o‘z zimmasiga olmaydi.

6.4. Yakuniy narx buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilishni tugatgandan so’ng, nazorat o’lchovi natijalariga ko’ra, haqqoniy bajarilgan ish hajmiga muvofiq belgilanadi.

6.5. O‘zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksi 4-bob 23,24,25-moddalari xamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 17.09.2021 yildagi №579-sonli qarorining 4-bandiga asosan "Qurilishi markazlashtirilgan manba’lar hisobiga moliyalashtiriladigan obektlarning boshlang‘ich qiymati Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy saytiga (stat.uz) joylashtirib boriladigan qurilish materiallarining joriy narxlari, mashina va mexanizimlar xizmati uchun o‘rtacha narxlar hamda o‘rtacha ish haqi ko'rsatkichlaridan foydalangan holda shakllantiriladi" hamda mazkur qarorning 1-ilova 3-bob 29-bandiga asosan "Ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlari bo'yicha buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir".

6.6. Taqdim qilingan lokal hulosaga javob hujjatilaring haqqoniyligi, sifati va ishonchliligi uchun buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir.

7. Xulosalar.

Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda “Andijon shahar Mash’al MFY Termiz ko’chasi hududida Mavjud ofis bino inshootlarini buzib, o’rniga 5 qavatli turar-joy binosi qurilishi” ishlari yuzasidan loyiha smeta hujjatlari kelgusida ko’rib chiqish va kelishish uchun tavsiya etiladi.

Bosh ekspert: Elmurodov Asliddin Kulmurodovich.

Ishtirokchi ekspertlar: Niyazov Alisher Maxmudovich, Xudayarov Shavkat Dushabayevich, Otajonov Mansurjon Ma’rufjon O‘g‘li, Shakurov Rafael Faxrazeyevich, Ibragimov Ismoil Xabibullayevich, Abdullayeva Nodira Mirzanazarovna, Djabbarova Lenura Appazovna, Elmurodov Asliddin Kulmurodovich